

HARAKAT VA HOLAT FE'LLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI

Shohida Tahirova Nasriddinova

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi.

Tel: (99) 814-52-70 E-mail: shohidatohirova2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18655028>

Annotatsiya. Maqolada harakat va holat fe'llarining leksik-semantik xususiyatlari haqida nazariy va tahliliy ma'lumotlar beriladi. Harakat va holat fe'llarining atash, ifoda, vazifa semalari va ularning ilmiy, badiiy, so'zlashuv, rasmiy, publisistik uslublardan qaysi birida faol qo'llanishi tahlillar orqali dalillanadi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, fe'l, harakat-holat fe'llari, sema, atash, ifoda, vazifa semalari, uslub, ilmiy, badiiy, so'zlashuv, rasmiy, publisistik.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГЛАГОЛОВ ДЕЙСТВИЯ И СОСТОЯНИЯ

Аннотация. В статье представлена теоретическая и аналитическая информация о лексико-семантических особенностях глаголов действия и состояния. С помощью анализа доказано, что глаголы действия и состояния имеют номинативные, экспрессивные, функциональные семы и в каком из научных, художественных, разговорных, официальных, публицистических стилей они активно используются.

Ключевые слова: узбекский язык, глагол, глаголы действия и состояния, sema, название, выражение, функции, стиль, научный, художественный, разговорный, официальный, публицистический.

LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF VERBS OF ACTION AND STATE

Abstract. The article provides theoretical and analytical information on the lexical-semantic features of action and state verbs. Through analysis, it has been proven that action and state verbs have nominative, expressive, functional families and are actively used in which of the scientific, literary, colloquial, official, and journalistic styles.

Keywords: Uzbek language, verb, action and state verbs, seme, name, expression, functions, style, scientific, artistic, colloquial, official, publicistic.

Kirish: Hozirgi o'zbek tilida harakat va holat fe'llarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilishda asosan semantik xususiyatlari ya'ni atash, ifoda, vazifa semalari bilan ifodalanishi nazarda tutiladi. Harakat va holatni ifoda qiluvchi fe'llar qanday semalarda kelishi va ularning ilmiy, badiiy, so'zlashuv, rasmiy, publisistik uslubdan qaysi birida faol qo'llanishi, gapda va matnlardagi vazifa semasi haqida nazariy ma'lumotlar mavjud.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Hozirgi o'zbek tilida fe'llarning leksik-semantik xususiyatlari haqida bir qancha izlanishlar olib borgan olimlarning ilmiy ishlari samarali bo'ldi. D.Ganiyevaning "O'zbek tilidagi fe'ning funksional shakllarida sinkretiklik va polifunksionallik" nomzodlik desertatsiyasi, A.Hojiyevning "Fe'l", "O'zbek tili fe'llarining semantik strukturasi", Qalandar Sapayev "Hozirgi o'zbek tili", R.Sayfullayeva va boshqalar "Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya", R.Rasulov "O'zbek tilida fe'llarning ma'no tuzilishi" asarlarini yozib tilshunoslikka katta hissa qo'shishdi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tilshunos olim R. Rasulov mustaqillik davrida fe'lga bog'liq bir qancha asarlar yaratdi. Jumladan, "O'zbek tilida fe'llarning ma'no tuzilishi" asarida fe'llarni semantik tahlil qilish orqali so'zning mantiqiy bo'laklarini aniqlash, mantiqiy bo'laklarni aniqlash, tarkibiy qismlarining xillarini belgilash, har bir fe'lning semema tarkibidagi o'rni, ahamiyatini, boshqa semalarga bo'lgan munosabatini ochish - ma'nolar orasidagi mantiqiy aloqani topishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi¹. Olimning tahlillari natijasida tilning barcha sathlari uchun ilmiy ahamiyatga ega. R.Rasulov bu asarda holar fe'llarining birlashtiruvchi va farqlovchi semalarini yoritib beradi. Asarda o'zbek tilidagi holat fe'llarini quyidagicha leksik-semantik guruhlariga ajratadi.

1. Davomli holat fe'llari
2. Harakat natijasi bo'lgan holat fe'llari
3. Ijro holati fe'llari
4. Harakatning holati fe'llari
5. Malaka holati fe'llari
6. Obrazli holat fe'llari
7. Biologik holat fe'llari
8. Fiziologik holat fe'llari
9. Psixik holat fe'llari

Bu leksik - semantik guruhlarda "holat" mushtarak sema, "davomli", "harakat natijasi", "ijro", "harakat", "malaka", "obrazli", "biologik", "fiziologik" va "psixik" kabi ma'no bo'laklari esa birlashtiruvchi sema bo'ladi deb yozadi.²

Asarda *urmoq, yotmoq, o'tirmoq, tunamoq, tutashmoq, yopishmoq, ivimoq bo'kmoq, so'nmoq, tugamoq, to'xtamoq, qo'riqlamoq, poylamoq* kabi fe'llar semantik tahlil qilinadi.

D. Ganiyevaning "O'zbek tilidagi fe'lning funksional shakllarida sinkretiklik va polifunksionallik" nomzodlik desertatsiyada fe'lning funksional shakllari, ularning kategoriyalari haqida ma'lumot beradi.

A.Hojiyevning "O'zbek tili fe'llarining semantik strukturasi" asarida fe'llarning semantik-struktur xususiyatlarini yoritib bergan. Olim fe'l va ko'makchi fe'llarning sementik xususiyati, struktur tizimi, yasalishi, kategoriyalari, so'z turkumlari bilan ifodalanishi haqida ma'lumolar beriladi.

Qalandar Sapayev "Hozirgi o'zbek tili" asarida fe'lning semalari, mustaqil va yordamchi fe'llar, fe'l zamon, mayl, nisbat kategoriyalari, o'timli, o'timsiz fe'llar, fe'lning tuslanishi haqida ma'lumot beradi. Olim fe'lning ma'nolarini A.Hojiyevdan farqli tarzda katta ikki guruhga emas, quyidagi guruhlariga bo'ladi. Fe'lning qanday harakat va holatni ifodalashiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratadi.

1. Yumush fe'llari
2. Tafakkur fe'llari
3. Sezgi
4. Ruhiy holat fe'llari
5. Nutq fe'llari

¹ R.Rasulov O'zbek tilida fe'llarning ma'no tuzilishi. T.: 2008. - B. 5.

² Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida fe'llarning ma'no tuzilishi. T.: 2008. - B. 7.

6. Ishora fe'llari
7. Jismoniy holat fe'llari
8. Tabiiy holat fe'llari
9. Ko'rish fe'llari
10. Tabiiy hodisalarni ifodalash fe'llari

Yuqoridagi fe'llarga misollar keltiradi, olim ko'makchi fe'llarning har biriga semantik va struktur jihatdan tahlil qiladi. Ularning qanday ma'noda ishlatilishi va so'z turkumlari bilan ifodalanishi haqida nazariy ma'lumotlar beradi.³

R.Sayfullayeva va boshqalar "Zamonaviy o'zbek tili. Morfemika va Morfologiya" asarida harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, sozlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog'liq fe'llar farqlaydi.

Harakat fe'llari - predmet va shaxs harakatini ifodalovchi fe'llar: *yurmoq, kezmoq, urmoq, solmoq, mushtlamoq, chapak chalmoq, paxsa qilmoq*;

Nutq fe'llari - insonning gapirish faoliyati bilan bog'liq harakatlarni ifodalaydi. *Gapirmoq, so'zlammoq, aytmoq, demoq*,

Holat fe'llari - inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holatlar turli xususiyatlarga ega. *Xafa bo'lmoq, shodlanmoq, esankiramoq, boyimoq, kambag'allashmoq*

Natijali faoliyat fe'llari tizimi *yasamoq, chizmoq, yozmoq, barpo qilmoq, sayqal bermoq* kabi fe'llar mavjud.

Tafakkur fe'llari sirasiga insonning fikrlash qobiliyati bilan bog'liq: *o'ylamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq*.

Munosabat fe'llari qatori: *erkalamoq, suymoq, yaxshi ko'rmoq*⁴

Asarda fe'llarning struktur xususiyatlari haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbek tilidagi harakat fe'llarini semantik jihatdan tahlil qilamiz.

Yurmoq – inson a'zosi oyoq orqali harakat qilmoq, ma'lum masofani bosib o'tmoq semalari atash ma'nosi tushuniladi. "Ilmiy, badiiy, so'zlashuv uslubga xosligi" ifoda semasi hisoblanadi.

Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo'llanadi. *Sahardan tungacha tik oyoqda yurdi.*

Tepmoq – inson a'zosi oyoq orqali harakat qilmoq, ma'lum predmetga oyoq orqali ta'sir o'tkazmoq, tepmoq semalari atash ma'nosi tushuniladi. "Ilmiy, badiiy, so'zlashuv uslubga xosligi" ifoda semasi hisoblanadi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo'llanadi. *Bolalar o'yingohda to'p tepishdi.*

Urmoq – biron narsa, kaltak, qo'l orqali boshqa shaxsga tan jarohati yetkazmoq semalari atash ma'nosi hisoblanadi. "Ilmiy, badiiy, so'zlashuv uslubga xosligi" ifoda semasi hisoblanadi.

Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo'llanadi. *Nafosat aya jahl ustida Rahmatjonni kaltak bilan urdi.*

Hovuchlamoq – inson qo'l panjalarini yig'ib biron narsani olmoq semasi atash ma'nosi hisoblanadi. "Ilmiy, badiiy, so'zlashuv uslubga xosligi" ifoda semasi hisoblanadi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo'llanadi. *Shoshilgan bug'doyni hovuchlab chelakka soldi.*

³Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili. T.: 2009. - B. 187.

⁴Sayfullayeva R. Zamonaviy o'zbek tili. Morfemika va Morfologiya. T.: 2008. - B. 45.

Yozmoq – inson barmoqlari orqali harflar yordamida xabar, xat, matn... semalari atash ma’nosi hisoblanadi. “Ilmiy, badiiy, so‘zlashuv uslubga xosligi” ifoda semasi hisoblanadi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo‘llanadi. *Kumushbibi Otabekka xat yozdi.*

Ishlamoq – ish qilmoq, mehnat qilmoq, harakat qilmoq semalari atash ma’nosi hisoblanadi. “Ilmiy, badiiy, so‘zlashuv uslubga xosligi” ifoda semasi hisoblanadi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo‘llanadi. *Erta bahordan kech kuzgacha pechona teri bilan ishladi.*

Chopmoq – yer chopmoq, yer haydamoq, shudgor qilmoq semalari atash ma’nosi hisoblanadi. “Ilmiy, badiiy, so‘zlashuv uslubga xosligi” ifoda semasi hisoblanadi. Vazifa semasi lisoniy qolipda quyidagicha qo‘llanadi. *Begmurod yaxshi hosil uchun kech kuzda yerlarni chopdi.*

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendation). Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi o‘zbek tilida harakat va holat fe’llarining leksik semantik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Biz mana shu ilmiy maqolamizda hozirgi o‘zbek tilida harakat va holat fe’llarining semantik xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qildik. Bu tahlil ilmiy matnlar yaratilishida nazariy ma’lumot bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sayfullayeva R. Zamonaviy o‘zbek tili. Morfemika va Morfologiya. T.: 2008. - B. 45.
2. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili. T.: 2009. - B. 187.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe’llarning ma’no tuzilishi. T.: 2008. – B. 7.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.: - B. 437.
5. Rasulov R. O‘zbek tilida fe’llarning ma’no tuzilishi. T.: 2008. - B. 5.